



NOGIRONLIGI BO'LGAN BOLALARNI O'QITISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

A.B.Kubayev

Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumi
maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada nogironligi bo'lgan bolalarni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalalari yoritilgan. Unda inklyuziv ta'limning ahamiyati, individual yondashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'yin asosida o'qitish va differensial ta'lim metodlarining samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, nogironligi bo'lgan bolalarning psixologik va pedagogik xususiyatlari hisobga olinib, ta'lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari ko'rib chiqilgan. Maqolada o'qituvchining roli, mavjud muammolar va ularning yechimlari ham bayon etilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash ta'lim sifatini oshirishga, o'quvchilarning faolligini kuchaytirishga hamda ularni jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilishga xizmat qiladi.

Kali so'zlar: nogironligi bo'lgan bolalar, ilg'or pedagogik texnologiyalar, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, inklyuziv ta'lim texnologiyasi.

KIRISH

Hozirgi globallashtirish davrida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, barcha toifadagi o'quvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, nogironligi bo'lgan bolalarni o'qitish masalasi alohida e'tibor talab etadi. Chunki bunday bolalar maxsus pedagogik yondashuv, individual dasturlar va zamonaviy texnologiyalar asosida ta'lim olgandagina o'z salohiyatini to'liq namoyon eta oladi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalar esa aynan shu ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi. Ular o'quv jarayonini samarali, interaktiv va moslashuvchan tarzda tashkil etish imkonini beradi.

Nogironligi bo'lgan bolalar turli toifalarga bo'linadi bular quydagilar, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar, nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar, harakat-tayanchida muammosi bo'lgan bolalar, intellektual rivojlanishida orqada qolgan bolalar. Har bir toifa uchun ta'lim berish metodikasi o'ziga xos bo'lib, quyidagi omillarni hisobga olish zarur masalan psixologik holati, fiziologik imkoniyatlar, idrok qilish darajasi, ijtimoiy moslashuvi shular jumlasidandir.

Shu sababli, yagona standart yondashuv o'rniga moslashuvchan va individual yondashuv muhim hisoblanadi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalar - bu o'quv jarayonini samarali tashkil etishga qaratilgan zamonaviy metod, vosita va yondashuvlar majmuasidir. Ularning asosiy maqsadi quydagilar:

- ta'lim sifatini oshirish
- o'quvchilarning faolligini kuchaytirish
- mustaqil fikrlashni rivojlantirish
- bilimlarni amaliyot bilan bog'lash



Date: 06 May 2026

Nogironligi bo'lgan bolalar bilan ishlashda bu texnologiyalar alohida ahamiyatga ega. Nogironligi bo'lgan bolalarni o'qitishda qo'llaniladigan ilg'or texnologiyalar inklyuziv ta'lim texnologiyasi bo'lib, inklyuziv ta'lim barcha bolalarni bir xil ta'lim muhitida o'qitishni nazarda tutadi. Individual ta'lim texnologiyasi har bir bolaning ehtiyojidan kelib chiqib, individual o'quv reja tuziladi hamda maxsus topshiriqlar beriladi va o'qitish sur'ati moslashtiriladi. Bu usul ayniqsa intellektual rivojlanishda farq bo'lgan bolalar uchun samaralidir.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) AKT imkoniyatlari nogironligi bo'lgan bolalar uchun juda keng bolib masalan audio kitoblar, braille displeylar, subtitrli video materiallar interaktiv o'quv dasturlari bugungi kundagi ilg'or texnologiyalardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari ko'zi ojiz bolalar uchun ovozli dasturlar, eshitishda muammosi bo'lganlar uchun vizual materiallar. Bu texnologiyalar orqali ta'lim jarayoni yanada qulaylashadi.

Nogironligi bor o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchining roli zamonaviy o'qituvchi quyidagi sifat va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:

- innovatsion fikrlash
- sabr-toqat va empatiya
- maxsus pedagogika bilimlari
- texnologiyalarni qo'llay olish

O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yo'naltiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi shaxs bo'lishi lozim.

XULOSA

Nogironligi bo'lgan bolalarni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash bu nafaqat ta'lim sifati, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim omildir. Bunday yondashuv orqali har bir bola o'z imkoniyatini ro'yobga chiqaradi va jamiyatning faol a'zosiga aylanadi. Biz nogironligi bo'lgan bolalar bilan ishlashda ularga turli pedagogik yondashuvlar orqali yondashmasak, ayrim o'quvchilarni iqtidorlarini ro'yobga chiqarishda xatolarga yo'l qo'yishimiz mumkin. Bundan tashqari nogironligi bor o'quvchilar bilan ishlashda indivudal yondashuv ham alohida o'ringa ega sababi bu turdagi o'quvchilarda tushunish, eslab qolish, biror bir masalani mohiyatini anglash turlicha bo'ladi, shuning uchun har bir o'quvchiga alohida e'tibor berish va ishlash talab etiladi. Yuqorida maqolada keltirib o'tilgan yondashuvlar asodida o'quvchilar bilan muloqot olib borilsa, kelajakda o'quvchilarimiz hayotda o'z yo'llarini topishda va yetuk mutaxassislar bo'lib yetishishda o'z samarasini beradi deb o'ylaymiz.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi. (2020). Ta'lim to'g'risidagi Qonun. Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019–2023). Inklyuziv ta'limni rivojlantirishga oid qaror va farmonlar. Toshkent.



Date: 06 May 2026

3. UNESCO. (2005). Inclusive education: Guidelines for inclusion. Paris: UNESCO.
4. Ainscow, M. (1999). Understanding the development of inclusive schools. London: Falmer Press.
5. Booth, T., & Ainscow, M. (2011). Index for inclusion: Developing learning and participation in schools. Bristol.
6. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
7. Karimov, I. A. (2008). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat.
8. Xoliqov, A. (2011). Pedagogik mahorat. Toshkent: O'qituvchi.
9. Ishmuhamedov, R., & Abduqodirov, A. (2008). Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent.
10. Tolipov, O'., & Usmonboyeva, M. (2006). Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari. Toshkent.
11. Nazarova, T. (2015). Maxsus pedagogika asoslari. Toshkent.
12. Ziyonet. (2026). Retrieved May 4, 2026, from <http://www.ziyonet.uz>
13. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim portali. (2026). Retrieved May 4, 2026, from <http://www.edu.uz>
14. UNESCO. (2026). Retrieved May 4, 2026, from <https://www.unesco.org>

